

ENDONAZAL DAKRIOTSISTORINOSTOMIYA OPERATSIYASINING SAMARADORLIGINI BAHOLASH

XAMDAMOV XASANBOY OZODOVICH

Urjuza ko'z kasalliklari klinikasi, oftalmolog shifokori

KOMOLIDINOV BOBUR MARUFJON O'G'LI

Fergana Medical Center klinikasi, otorinolarolog shifokori

Dolzarbliqi. Ko'z yoshi yo'llarining surunkali obstruktiv kasalliklari oftalmologiyada keng tarqalgan bo'lib, ular umumiy ko'z kasalliklarining 6–12 foizini tashkil etadi. Surunkali dakriotsistit bemorlarda yallig'lanish jarayonlarini kuchaytirib, ko'z yoshi oqimining buzilishiga va hayot sifatining pasayishiga olib keladi. Ushbu holatni bartaraf etishda eng samarali jarrohlik usul - dakriotsistorinostomiya hisoblanadi. So'nggi yillarda an'anaviy tashqi usul bilan bir qatorda endonazal endoskopik dakriotsistorinostomiya usuli ham keng qo'llanilmoqda. Endoskopik usulning afzalliklari - minimal invazivlik, qisqa tiklanish davri va yuqori estetik natijalar bilan bog'liq. Shu bois, mazkur tadqiqotning maqsadi turli DSR usullarining samaradorligini taqqoslab, optimal variantni aniqlashdan iborat bo'ldi.

Material va usullar. Tadqiqotdada 40 nafar surunkali dakriotsistit bilan og'rigan bemorlar ishtirokida o'tkazildi. Bemorlarning o'rtacha yoshi $45,3 \pm 2,1$ yil bo'lib, 30 nafari (75%) ayollar, 10 nafari (25%) erkaklar edi. Ular ikki guruhga ajratildi: birinchi guruh (20 nafar bemor)da an'anaviy tashqi dakriotsistorinostomiya, ikkinchi guruh (20 nafar bemor)da esa endonazal endoskopik dakriotsistorinostomiya bajarildi.

Tadqiqot natijalari. Olingan natijalarga ko'ra, endonazal endoskopik usulda operatsiya o'tkazilgan bemorlarda reabilitatsiya davri $6,3 \pm 0,9$ kunni tashkil etib, bu an'anaviy tashqi usulda operatsiya qilingan bemorlarning $10,8 \pm 1,4$ kunlik tiklanish davriga nisbatan sezilarli darajada qisqa bo'ldi ($p < 0,01$). Bu shuni ko'rsatadiki, endoskopik yondashuvda jarrohlik travmasi kam, operatsiyadan keyingi shish va og'riq sindromi yengil kechadi, bu esa bemorning erta reabilitatsiyasini ta'minlaydi.

Endonazal endoskopik DSR usulida yallig‘lanish asoratlari atigi 5% hollarda (1 nafar bemorda) kuzatildi, bunda yengil darajadagi shilliq qavat gipermiyasi qayd etilgan va konservativ davo bilan to‘liq bartaraf etilgan. An’anaviy tashqi DSR usulida esa asoratlar 20% hollarda (4 nafar bemorda) uchrab, ularda yallig‘lanish jarayonlari, o‘rtacha shish va yengil seroz ajralmalar kuzatildi. Statistika tahlilga ko‘ra, endoskopik usulda asoratlar chastotasi an’anaviy usulga nisbatan sezilarli darajada past bo‘ldi ($p < 0,05$).

Ko‘z yoshi yo‘lining o‘tkazuvchanligi operatsiyadan 3 oy o‘tgach, endoskopik usul bilan davolangan bemorlarning 90% ida (18 nafar) to‘liq tiklandi, bu esa Jones testi orqali tasdiqlandi. Tashqi DSR o‘tkazilgan bemorlarda esa bu ko‘rsatkich 75% (15 nafar) ni tashkil etdi. Qayta obstruksiya holatlari asosan tashqi usulda operatsiya qilingan bemorlarda uchradi, bu holat operatsiya joyida chandiqlik to‘qimalar hosil bo‘lishi bilan izohlanadi. Natijalar orasidagi farq statistik jihatdan ishonchli bo‘lib, $p < 0,05$ darajasida tasdiqlandi.

Bemorlarning umumiy qoniqlik darajasi 5 ballik sub’ektiv baholash shkalasi asosida o‘lchandi. Endonazal endoskopik usul bilan operatsiya o‘tkazilgan bemorlar o‘rtacha $4,8 \pm 0,3$ ball natija ko‘rsatgan bo‘lsa, an’anaviy tashqi usul bilan davolangan bemorlarda bu ko‘rsatkich $4,1 \pm 0,6$ ballni tashkil etdi ($p < 0,01$). Bu, bir tomondan, endoskopik usulning kam travmatikligi, tashqi chandiqlik izining yo‘qligi va bemorlarning operatsiyadan keyingi estetik ko‘rinishdan yuqori darajada mamnun bo‘lishi bilan bog‘liqdir.

Xulosalar. Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, endonazal endoskopik dakriotsistorinostomiya an’anaviy tashqi usulga nisbatan kamroq asoratlar, qisqa tiklanish davri va estetik jihatdan yuqori natijalarni ta’minlaydi. Operatsiya muvaffaqiyati endoskopik usulda 90%, tashqi usulda esa 75% ni tashkil etdi. Shunday qilib, endonazal endoskopik dakriotsistorinostomiya surunkali dakriotsistitni davolashda yuqori samaradorlikka ega, zamonaviy va estetik jihatdan afzal usul hisoblanadi. Uni amaliy oftalmologiyada keng joriy etish, ayniqsa yosh va faol bemorlar orasida, maqsadga muvofiqdir.